



**«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.:
B.Sharipov**

**«13» iyun 2025 y.
№ 20**

**“Kelajak kasblari va sunʼiy intellekt: Raqamli transformatsiya jarayonida
rivojlanish” oʻquv kursi**

XARID HUJJATI

I. TANLASH ISHTIROKCHILARI UCHUN QO‘LLANMA

1-BOB. UMUMIY MA‘LUMOTLAR

1.1. Mazkur xarid hujjati O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi №684- sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-sentabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 306-sonli qarori hamda bankning ichki tartibi asosida ishlab chiqilgan va eng yaxshi takliflarni tanlashni (keyingi matnda – Tanlash) o‘tkazish tartibini belgilab beradi.

1.2. Tanlash o‘tkazish uchun asos: 2025 yil 1-apreldagi IF-1270 sonli bank Boshqaruv Raisi tomonidan imzolangan bildirishnoma.

1.3. Tanlash predmetining to‘liq nomi: “Kelajak kasblari va sun‘iy intellekt: Raqamli transformatsiya jarayonida rivojlanish”
Tanlashning boshlang‘ich narxi: 510 000 000 (besh yuz o‘n million) so‘m (QQS bilan birga).

Moliyalashtirish manbasi – Buyurtmachining o‘z mablag‘lari.

1.4. Tijorat takliflari ochiq taqdim etilgan hamda boshlang‘ich narxdan yuqori narx taklif etgan ishtirokchilarning takliflari ko‘rib chiqilmaydi hamda tanlashdan chetlashtiriladi.

1.5. Tanlash mazkur xarid xujjatining 1.1.-bandida ko‘rsatilgan me‘yoriy hujjatlarga muvofiq shaklda o‘tkaziladi.

1.6. Buyurtmachi – “Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda Buyurtmachi).
Buyurtmachi manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 18A- uy, tel.: 78 150-93-39.

1.7. Xarid komissiyasining ishchi organi – “Biznesni rivojlantirish banki” ATB Korporativ xaridlar boshqarmasi. Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, 100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 18A- uy. Bog‘lanish uchun shaxs: bo‘lim boshlig‘i Sh.R. Botirov, tel.: 78-150-93-39. Ichki raqam - 363

1.8. Tanlash o‘tkazayotgan veb-sayt xavola: “Biznesni rivojlantirish banki” ATB rasmiy sayti, www.brb.uz.

1.9. Xizmatni bajarish etkazib berish muddati –180 ish kuni.

1.10. Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi (bundan buyon matnda ishtirokchi deb yuritiladi) tanlashda davlat xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, ushbu xarid xujjati talablariga muvofiq bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo‘lgan yuridik shaxslar bo‘lishi mumkin.

2-BOB. TANLASH ISHTIROKCHILARIGA BO‘LGAN TALABLAR

2.1. Tanlash ishtirokchilariga 1-ilova “Tanlash ishtirokchilari va takliflarni baholash mezonlari”da keltirilgan talablar qo‘yiladi. Ushbu talablarga muvofiq bo‘lmagan yoki talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlarini taqdim etmagan yoki taqdim etgan ma‘lumotlari Buyurtmach tomonidan qo‘shimcha ravishda o‘rganib chiqilganda haqiqiyliги va ishonchliligi tasdiqlanmagan holda ushbu ishtirokchi tanlashdan chetlashtiriladi.

Shuningdek, ishtirokchi (yoki uning bank hisobvarag‘i) imtiyozli soliq rejimini ta‘minlaydigan va (yoki) moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda ma‘lumotlarni oshkor qilish va taqdim etishni ta‘minlamaydigan davlatlar va hududlarda (offshor zonalarda) ro‘yxatdan o‘tmagan bo‘lishi, tan olingan maxsus nazorat qiluvchi organlarning sanksiyalar ro‘yxatida bo‘lmasligi, ishtirokchining yuridik manzili taqiqlangan hududlarga tegishli bo‘lmasligi kerak.

2.2. Tanlash ishtirokchisi o‘z taklifi bilan birga ushbu xarid hujjatlarining 1-ilovasi “Tanlash ishtirokchilari va takliflarni baholash mezonlari”da keltirilgan tanlash uchun hujjatlarni taqdim etadi.

2.3. Davogarlarni tanlashda ushbu bobda va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablarga javob bermaydigan tashkilot va firmalar tanlashda ishtirok etishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

2.4. Mazkur bobda ko'rsatilgan hujjatlar taqdim etish uchun majburiydir. Agar ishtirokchi ko'rsatilgan hujjatlarni taqdim etmasa, xarid komissiyasi uni tanlashda ishtirok etishga ruxsat bermaslikka haqli.

2.5. Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchi:

a) "Biznesni rivojlantirish banki" ATB rasmiy sayti, www.brb.uz ga joylashtirilgan xarid hujjatining elektron shaklini yuklab oladi va o'rganib chiqadi;

b) mazkur xarid xujjati talablari asosida o'z taklifini taqdim etadi;

2.6. Tanlash ishtirokchisi:

- taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyliigi va ishonchliligi uchun javobgardir;
- faqat bitta taklif kiritish huquqiga ega;
- taqdim etilgan taklifni taqdim etish muddati tugagunga qadar qaytarib olish yoki o'zgartirish huquqiga ega.

– **tanlash ishtirokchisi tomonidan ilovada ko'rsatilgan kafolat xati (1-shakl), kontragent egaligi tuzilmasi (2-shakl), korruptsiya holatlarga yo'l qo'yilmaslik haqidagi ariza (3-shakl), tanlash ishtirokchisi to'g'risida umumiy ma'lumot (4-shakl) lar tanlash hujjatlarida ko'rsatilgan shaklda taqdim etadi.**

Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan malaka hujjatlari tanlash e'lon qilingan sanadan keyin rasmiylashtirilgan yoki amal qilish muddati (soliq idoralari yoki boshqa vakolatli tashkilotlardan berilgan ma'lumotlar) o'tmagan bo'lishi lozim.

3-BOB. TAKLIFLARNI RASMIYLASHTIRISH, QABUL QILISH, BAHOLASH TARTIBI VA KO'RIB CHIQISH MUDDATLARI

3.1 Takliflar tanlash ishtirokchisining vakolatli vakili tomonidan tasdiqlangan va muhrlangan ikkita, tashqi va ichki, konvertda topshirilishi kerak. Yelimlash joylari imzolanadi yoki va muhrlanadi. Takliflarning texnik va moliyaviy qismiga oid hujjatlar jildlangan, raqamlangan va vakolatli shaxsning imzosi va ishtirokchining muhri bilan muhrlangan bo'lishi kerak. Ishtirokchi o'z taklifini xarid komissiyasining ishchi organi ("Biznesni rivojlantirish banki" ATB Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti Korporativ xaridlar boshqarmasi)ga pochta orqali yoki ishtirokchining vakolatli vakili orqali qo'lda taqdim etadi.

Taklifni taqdim etish sanasi va vaqti xarid komissiyasining ishchi organi tomonidan takliflarni ro'yxatga olish jurnalida (varaqda) ishtirokchining vakolatli vakili (agar mavjud bo'lsa) imzosi bilan qayd etiladi.

3.2 Tashqi konvertda quyidagi hujjatlar bo'lishi kerak:

a) ushbu xarid hujjatining 2.2.-bandiga muvofiq hujjatlar;

b) taklifning moliyaviy (narx) qismi solingan muhrlangan konvert.

3.3 Taklif doirasida taqdim etilgan barcha hujjatlar davlat tilida va zaruriyatga qarab boshqa tillarida rasmiylashtirilishi mumkin. Boshqa tillarda taqdim etilgan takliflar o'zbek yoki rus tillariga tarjima qilinishi lozim. Bu holda tarjima qilingan hujjat haqqoniy deb hisoblanadi.

Barcha hujjatlar ishtirokchining vakolatli shaxsi imzosi va muhri bilan taqdim etilishi talab etiladi.

3.4 Taklifning amal qilish muddati takliflarni qabul qilinishi tugagan kundan boshlab kamida 20 ish kuni bo'lishi kerak.

3.5 Takliflarni qabul qilish muddati va vaqti: takliflar "Biznesni rivojlantirish banki" ATB rasmiy sayti (www.brb.uz) da tanlash elon qilingan kundan boshlab 5 ish kuni muddatda qabul qilinadi. Tanlashda ishtirok etish uchun takliflarni qabul qilish muddati tugagandan keyin takliflar qabul qilinmaydi.

3.6 Takliflarni qabul qilish muddatini uzaytirish faqat xarid komissiyasining qarori bilan amalga oshiriladi.

3.7 Buyurtmachi quyidagi hollarda ishtirokchini tanlovda ishtirok etishdan chetlatadi, agar:

- ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida davlat buyurtmachisi tomonidan qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki

xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;

- ishtirokchi xarid qilish hujjatining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa;
- ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa;
- ishtirokchi taqdim etgan hujjatlardagi ma'lumotlar haqqoniy emasligi aniqlanganda;
- u to'g'risida Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd mavjud bo'lsa.

3.8 Tanlash ishtirokchilari tanlash o'tkazish tartibi bo'yicha qarshi takliflar kiritishga haqli emas.

3.9 Agar tanlash g'olibi shartnoma loyihasida offshog zonada yoki ta'qiqlapgan hududlarda joylashgan yuridik (pochta) manzili va (yoki) bank hisob raqamini ko'rsatsa, Buyurtmachi taplash g'olibi bilan shartnoma tuznaslikka haqli.

3.10 Xarid komissiyasi va Buyurtmachi taplash ishtirokchilarining tanlashda qatnashish bilan bog'liq harajatlari uchun moddiy javobgar emaslar.

4-BOB. HUJJATLARGA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH

4.1. Buyurtmachi tanlashda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugashidan bir ish kunidan kechiktirmay hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilishga haqli. Bu holda, ushbu tanlash bo'yicha takliflarni taqdim etish muddati kamida uch ish kuniga uzaytiriladi. Shu bilan birga, agar e'londa ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgartirilgan bo'lsa, tanlash e'loniga o'zgartirishlar kiritiladi.

4.2. Tovar va xizmatlarning nomlarini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

4.3. Tanlash ishtirokchisi xarid xujjati qoidalariga oydinlik kiritish uchun takliflarni qabul qilish muddati tugagunga qadar ikki ish kunidan kechiktirmay buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali so'rov yuborish huquqiga ega. Ushbu so'rov olingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida Buyurtmachi ochiq elektron chat orqali tushuntirishlar yuborishi shart. Xarid xujjati qoidalarining tushuntirishlari uning mohiyatini o'zgartirmasligi kerak.

5-BOB. TANLASH O'TKAZILMAGAN DEB TOPILISHI HOLATLARI

5.1. Quyidagi hollarda tanlash o'tkazilmagan deb topilishi mumkin:

- a) agar tanlovda hech kim qatnashmagan bo'lsa;
- b) agar takliflarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, xarid komissiyasi barcha takliflarni rad etgan bo'lsa yoki kelib tushgan takliflardan birortasi yoki hech qaysisi tanlov hujjati talablariga javob bermasa;
- c) taqdim etilgan taklif (takliflar) kerakli hujjatlar to'plamini o'z ichiga olmagan bo'lsa.

Bunda davlat buyurtmachisi Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi mumkin.

5.2. Buyurtmachi g'olib bo'lgan taklif akseptiga qadar istalgan vaqtda tanlashni bekor qilish huquqiga ega. Bu holda Buyurtmachi tanlash bekor qilinganligi to'g'risida asoslangan sabablarini "Biznesni rivojlantirish banki" ATB rasmiy sayti (www.brb.uz) joylashtiradi yoki tanlov g'olibiga tanlov natijalarini bekor qilinganligi to'g'risida ma'lumot beradi.

6-BOB. TAKLIFLARNI BAHOLASH TARTIBI VA MEZONLARI

6.1. Takliflar 1-ildavda keltirilgan mezonlarga muvofiq hamda ishtirokchining taklifiga asosan bir bosqichda baholanadi. Xarid hujjati mezonlari talablarini bajargan eng maqbul taklifni taqdim etgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

6.2 Ishtirokchilarning malaka va texnik baholash natijalariga mos kelmaydigan takliflari xarid komissiyasining qaroriga ko'ra tanlovdan chetlashtiriladi.

6.3 Ishtirokchilar va takliflarni baholash tartibi va mezonlari 1-ildavda keltirilgan. 1-ildavda keltirilgan mezonlarga muvofiq holda ishtirokchining taklifiga asosan malaka va texnik takliflar baholanadi. Xagid komissiyasining malaka va texnik taklif qismining baholash to'g'risidagi qarori

tanlash g'oliblarini aniqlaydigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

6.4. Xarid hujjatida ko'rsatilgan talablarga mos keladigan kamida bitta taklif mavjud bo'lganda xarid o'tkazilgan deb hisoblanadi va g'olib aniqlanadi.

6.5. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash muddati takliflarni qabul qilish muddati tugagan sanadan boshlab 10 ish kundan oshmaydi.

6.6. Xarid komissiyasining qarori bilan g'olib aniqlanadi. Zarur hollarda tanlovning zaxira g'olibi aniqlanishi mumkin.

6.7. Xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlash uchun rad etilmagan takliflarni xarid hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida baholaydi. Takliflar mezonlarga muvofiqligini chuqur o'rganish maqsadida xarid komissiyasi ekspert baholash guruhini tuzishga haqli.

6.8. Agar taklifni taqdim etgan ishtirokchi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga javob bermasa yoki ishtirokchining taklifi to'liq bo'lmasa yoki xarid hujjatlari talablariga muvofiq bo'lmasa, xarid komissiyasi taklifni rad etadi.

6.9. Xarid hujjati va taklifda ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan tanlash ishtirokchisi g'olib deb topiladi.

6.10. Xarid komissiyasi yig'ilishining Tanlash g'olibi aniqlanganligi to'g'risidagi bayonnoma tasdiqlanib g'olib aniqlangandan keyin ushbu xarid hujjatining shartlariga muvofiq Buyurtmachi g'olib tashkilot bilan 10 (o'n) ish kuni muddatda shartnoma tuzadi.

G'olib tomonidan shartnomani o'z vaqtida imzolamaslik shartnomani tuzishdan bosh tortish sifatida baholanadi.

6.9. G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha (bundan zaxiradagi g'olib taklif etgan narx g'olib tomonidan taklif etilgan narxdan past bo'lgan hollar mustasno) shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

Agar xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlanmagan bo'lsa yoki zaxiradagi g'olib shartnoma tuzishni rad etgan bo'lsa, buyurtmachi Qonun talablariga muvofiq yangi tanlash o'tkazishi mumkin.

TANLASH ISHTIROKCHILARI VA TAKLIFLARNI BAHOLASH MEZONLARI

Xarid komissiyasi tanlashni amalga oshiradi. Agar tanlash ishtirokchisi tomonidan talab qilingan ma'lumotlar taqdim etilmagan bo'lsa, u tanlashdan chetlashtiriladi.

Baholash mezonlari (eng past narx usuli)

№	Mezonlar	Baholash	Izoh
1.	Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjat. (Davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi hujjat nusxasi).	Ha (mavjud va muvofiq) / Yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas)	Agar yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
2	Ishtirokchining kafolat xati (1-shakl).	Ha (mavjud va muvofiq) / Yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas)	Agar yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
3	Kontragent egaligi tuzilmasi, bunga benefitsar(ta'sischi) mulkiy egalarni ham hisobga olgan holda barcha mulk egalari kiritiladi: (2-shakl, hamda Ustav yoki ta'sis shartnomasi yoki boshqa ta'sis hujjatlari nusxasi)	Ha (mavjud) / Yo'q (mavjud emas)	Agar yo'q (mavjud emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
4	Ishtirokchining korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi arizasi (3-shakl).	Ha (mavjud va muvofiq) / Yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas)	Agar yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
5	Sun'iy intellekt sohasidagi trening va seminarlar tashkil etish uchun maxsus IT yo'nalishiga ixtisoslashgan onlayn platforma – xodim amaliy topshiriqlarni bajara olishi va topshiriqni baholash imkoniyati bo'lgan platforma ega bo'lishi (lisenziya va/yoki platformadan foydalanish bo'yicha lisenziya bitimi)	Ha (mavjud va muvofiq) / Yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas)	Agar yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
6	Tanlash ishtirokchisi to'g'risida umumiy ma'lumot. (4-shakl)	Ha (mavjud va muvofiq) / Yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas)	Agar yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
7	So'nggi hisobot yili uchun buxgalteriya hisoboti (tasdiqlangan Buxgalteriya balansi - 1-shakl va Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot - 2-shakl) yoki so'nggi hisobot yili uchun auditorlik xulosasi	Ha (mavjud) / Yo'q (mavjud emas)	Agar yo'q (mavjud emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
8	Soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi to'g'risidagi ma'lumotnoma (vakolatli organ tomonidan berilgan ma'lumotnoma).	Ha (mavjud va muvofiq) / Yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas)	Agar yo'q (mavjud emas yoki muvofiq emas) bo'lsa, Ishtirokchi chetlashtiriladi.
9	Ishtirokchining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki me'yoriy hujjat yoki veb-saytining mavjudligi to'g'risida ma'lumot. (Hujjat nusxasi yoki veb-sayt havolasi).	Ha / Yo'q	Mazkur ma'lumot ishtirokchi tomonidan mavjud bo'lgan hollarda taqdim etiladi. Ushbu mezon bo'yicha ma'lumot taqdim etmagan ishtirokchi tanlashdan chetlashtirilmaydi.
10	Ishtirokchining bankrot emasligi to'g'risidagi ma'lumotnoma. (Davlat xizmatlari markazi tomonidan berilgan ma'lumotnoma nusxasi yoki kafolat xati).	Ha (mavjud) / Yo'q (mavjud emas)	Agar Yo'q (mavjud emas) bo'lsa, ishtirokchi chetlashtiriladi.

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ _____

Sana: _____

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Xarid komissiyasiga

KAFOLAT XAT

Ushbu xat bilan _____ (tashkilot nomi) quyidagilarni:

- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik holatida emasligini;
- Buyurtmachi bilan sud jarayoni holatida emasligini;
- ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni noto'g'ri bajarish holatlari yo'qligini;
- soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklar mavjud emasligini;
- shartnomani ijro etish uchun zarur bo'lgan texnik, moliyaviy, moddiy, kadr va mexnat hamda boshqa resurslariga egaligini;
- korrupsion ko'rinishlariga yo'l qo'yilmasligini;
- taqdim etilayotgan ma'lumot va xujjatlarni xaqqoniy va ishonchligini tasdiqlaymiz va kafolat beramiz.

Vakolatli shaxsning

F.I.Sh. _____

M.O'.

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Xarid komissiyasiga

Yakuniy benefitsiarlar to‘g‘risida _____

(haridlar ishtirokchisi) *

MA‘LUMOTNOMA

№	F.I.Sh.	Tug‘ilgan sanasi	Shaxsning roli (rahbar / ta‘sischi / yakuniy benefitsiar)	Shaxs rahbar/ ta‘sischi/ yakuniy benefitsiar bo‘lgan davr	Ishtirok etish ulushi (faqat 5 foizdan ortiq ulushga ega ta‘sischilar uchun), foizda
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					
7.					
...					

**so‘nggi ikki yil uchun to‘ldiriladi*

Vakolatli shaxsning

F.I.Sh. _____

Harid ishtirokchisidagi vakolatli shaxsning lavozimi _____

Ma‘lumotnoma tuzilgan

sana _____

M.O'.

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ _____
Sana: _____

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Xarid komissiyasiga

Korrupsion holatlarga yol qo'yilmaslik haqidagi
ARIZA

Ushbu xat orqali bizning _____ tashkilotimiz
(Tashkilot nomi)

a) Quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- 2021-yil 22-aprel “Davlat xaridlari to'g'risida”gi O'RQ-684-qonun talablariga rioya etilishiga;
- amaldagi mansabdor shaxsga, buyurtmachining yoki boshqa davlat xodimi vakiliga turli xil ko'rinishdagi mukofotni to'g'ridan-to'g'ri yoki boshqa bir yo'l orqali taklif etilishiga yo'l qo'yilmaslikni, Buyurtmachi tomonidan qaror qabul qilishiga ta'sir etish maqsadida ishga qabul qilish taklifini yoki qimmatbaho buyum, sovg'a yoki xizmatlarni taklif etish hamda biron bir boshqa nojo'ya xarakatlarni amalga oshirish orqali davlat xaridlari jarayoniga aralashmaslikka;
- raqobatchilarga qarshi xarakatlarni, shu jumladan affillanganlik holatlari aniqlangan holatlarida ham amalga oshirmaslikka;
- tovlamachilik, korrupsiya va hujjatlarni soxtalashtirish holatlariga yo'l qo'ymaslikka;
- yolg'on yoki soxta hujjatlarni taqdim etilmaslikni, ushbu lotda ishtirok etayotgan ishtirokchilarning affillangan shaxslari to'g'risidagi malumotlarni oshkor etmaslikni;

b) Shuningdek,

- Buyurtmachi bilan manfaatlar to'qnashuvida emasligini, ta'sischi va/yoki ijrochini aniqlanish bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega bolgan xodimlar orasida yaqin qarindoshlar yo'qligini;
- Tanlash natijalariga yoki narxlarining o'zgarishiga ta'sir etish maqsadida boshqa ishtirokchilar bilan o'zora til biriktirilmaganligini tasdiqlaymiz.

Vakolatli shaxsning

F.I.Sh. _____

M.O'.

ISHTIROKCHINING FIRMA BLANKASIDA

№ _____
Sana: _____

“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Xarid komissiyasiga

Tanlash ishtirokchisi to‘g‘risida umumiy ma‘lumot.

1	Yuridik manzil	
2	Amaldagi manzil	
3	Bog‘lanish uchun telefon, faks, e-mail	
4	Ushbu tanlov natijalari bo‘yicha to‘lov uchun bank rekvizitlari	

(vakolatli shaxsning imzosi)

(vakolatli shaxsning F.I.O.I. va mansabi)

Vakolatli shaxsning

F.I.Sh. _____

M.O‘.

kelishuvchilar: A.Azimov, R.Takhirova

<https://hujjat.brb.uz/?pin=fB76kQ14&id=52b974f0-122a-48ff-ab5e-1d84185e5338>